

**ABDULLA QODIRIYNING “O’TKAN KUNLAR” ROMANIDA MILLAT
QIZLARI TASVIRI**

Suyunova Zarina Muzaffar qizi
+998938909197
www.zarina97suyunova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada birinchi o‘zbek romanida tasvirlangan qizjuvonlar obrazi tahlil qilingan. Xushro‘ybibi, zaynabbibi hamda Kumushbibilar turmush tarzi, xarakter-xususiyatlari konflikt tarzda tahlillga tortiladi.

Kalit so‘zlar: Kumushbibi, Xushro‘ybibi, Zaynabbibi, mehr, vafo, go‘zallik, serfikrlilik, muhabbat.

O‘zbek adabiyoti tarixida roman janri qonun-qoidalariga javob bera oladigan dastlabki roman “O’tkan kunlar” bo‘lib, bu asar o‘z vaqtida son-sanoqsiz o‘quvchilariga ega bo‘lgan, hattoki, matnini yod bilgan kitobxonlar qodiriyxonlik kechalarini tashkil etishgan. Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanida Xudoyorxon davrini tasvirlasada, biroq o‘zi istiqomat qilayotgan vaqtida sodir bo‘layotgan voqealarga zimdan ishora qiladi. Qodiriyning ilk romanida o‘scha davrdan to bugungacha yozilayotgan asarlarda ko‘rilmaydigan milliylik, an’anaviylik, etiqod va diniy axloq masalalari go‘zal tarzda o‘z ifodasini topgan.

Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanida qizjuvonlarni tasvirlashda go‘zal iboralar, chiroyli o‘xshatishlar, noziklikni bildiruvchi so‘zlar bilan tasvirlaydi. Muallif qizlarni tasvirlashda ularning xarakter-xususiyatini ham birgalikda berib boradi Asar bosh qahramonilaridan biri bo‘lgan Otabekning Marg‘ilonda Mirzakarim qutidorning qiziga uylanish sahnasida ko‘rishimiz mumkinki, qizlar majlisi latif so‘zlar bilan qizlarning ta’rifi beriladi. Qizlar Kumushbibini xotinlik olamiga uzatish uchun yig‘ilishib ularning kiygan eng asl, eng nafis kiyimlari, favqulodda yasanib olganlari husn olamini yana bir qat, yana bir qayta yuksakka ko‘taradi. Majlisga yig‘ilgan qizlar husnda bir-biridan qolishmaydigan malak va parilarga qiyoslanadi. Kumushning hamsuhbatlari Anorgul, Savra, Gulsin, Xonimbibilar ko‘rsatiladi. Ular aytgan ashula-yu labarlar, kuy-u qo‘shiqlar majlisga o‘zgacha shukuh bag‘ishlaydi. Qizlar ipga tuzilgan marjondek uy tevaragida o‘tirishib, bunng ustiga yovoshlik, o‘ychanlik ularning ko‘rinishlariga ma’naviy bir husn va jiddiyat berib, bir husnga yuz husn qo‘shgan edi. Qaysi qiz chiroyli ekanligidan bahs boylashsa, bahsning oxiri ko‘rinmasligini so‘z ustasi bo‘lgan Julqunboy: Agar bu uyga kirib, bu majlis a’zolarini bir martaba ko‘zdan kechirsangiz, hzirdanoq aytib qo‘yishim mumkinki, albatta esingiz chiqib ketar: - Bu gulmi, ko‘hlik? Yo‘q, narigisi! Undan ko‘ra bunisi! Barchasidan ham o‘ttasi!... Ana shunday qilib esdan ham ajrarsiz, gul tanlashda bir qarorg‘a kelalmay el ichida kulgiga

ham qolursiz, rasvo ham bo‘lursiz.” – deya ta’rif etadi. Kumushning ko‘nglini ko‘tarish uchun qizlarning shaddodi bo‘lgan Gulsinbibi va Xonimbibilar majlisning eng qiziq tarafi bo‘lgan lapar aytishni boshlab yuborishadi.

Hali o‘n uch – o‘n to‘rt yoshlarda bo‘lgan Sharif miltiqchining qizi Saodatning Qodiriy usta Alim tilidan suratini ajib so‘zlar bilan chizadi, uning qo‘g‘irchoqdek qaddi qomatiga mos bo‘lgan do‘ndiqligi, bo‘y-bastiga yarashib tushgan gunohsiz o‘ynab turuvchi qora ko‘zları, qizil olmadek taram-taram yuzlari, qosh-u kipriklari bilan tasvirlaydi. Saodatni husndagina emas, balki usta Alimning hayotiga ham baxt bo‘lib kirdi. Saodatga bo‘lgan mehr muhabbat usta Alimning bir g‘ayratiga o‘n g‘ayrat qo‘shib ro‘zg‘orining yana-da to‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Kumush tasviri “O‘tkan kunlar” romanida berilgan eng ko‘p ta’riflardan biri hisoblanadi. Chunki asarning bosh qahramonlaridan biri bo‘lgan Kumushbibi asar davomida qanday holat va vaziyatlarni boshdan kechirgan bo‘lsa, muallif har bir vaziyatda Kumush holatini, ichki kechinmalarini batafsil tasvirlaydi. Asarda Kumushning dastlabki tasviri par yostiqda yotgan qora zulfli, quyuq jingala kiprikli, tim qora ko‘zli, qop-qora o‘tib ketgan nafis, qiyig‘ qoshli, to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi biz oz qizillikka aylangan, latif burnining o‘ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilgan qora xoli, oq ozik qo‘llari bilan beriladi. Kumushning nikoh qshomida bo‘ladigan qizlar bazmida esa boshqa holda tasvriga olinadi: qizlar bazmiga yangalar tomonidan uzatilgan Kumush boshida oq shohi ro‘moli, oq shohi ko‘ylak ustidan oq kumush zarrin sirilgan po‘stin, baqbag‘alarini o‘rab turgan yoqa qunduz kiyimlar, qora jingalak sochlarini sollanib tushgan, issiq bug‘dam oppoq yuzlari bo‘g‘riqqan holda; Kumush ota-onasi bilan Toshkentga kelganda paranjisi qo‘lida, qora atlas ko‘ylak, zangor latta mursak, oq shohi ro‘moli, shahlo ko‘zları kulimsirashga yaqin uyalinqiragan holda tasvirlanadi. Kumushni ham barcha ayollar singari rashk tuyg‘usi cho‘lg‘ab olgan sahnasini Toshkentga ilk kelgan kunlaridan bilishimiz mumkin. Kumush har taraflama: husn borasida ham, aql borasida ham, muhabbat borasida ham kundoshi bo‘lmish Zaynabdan ustun edi. Kumush vafot etgan bo‘lsa-da o‘zidan zurriyod – Yodgorbekni dunyoga keltirishga ulgurdi. Hayotga kelib sevilishga-da sazavor bo‘lmagan Zaynab taqdiri jununlik ila yakunlandi. Kumushnining o‘rniga Otabek sevgisiga sazavor bo‘lishni xohlab yosh juvonning joniga zolim bo‘lgan Zaynab ko‘p malomatlarga qoladi. Kumushning xati ila yo‘lga chiqqan Mirzakarim qutidor va Oftob oyim Kumushning vafotiga uch kun bo‘lgachgina yetib keladi. Ular yolg‘iz farzandini oxirgi yo‘lga kuzata olishmadi. Qancha orzular bilan yo‘lga chiqqan ota-onani baxtsizlik qurshab oldi. Bechora ona, bechora ota!..

Xushro‘ybibi Zaynabning o‘zidan yetti yosh katta bo‘lgan opasi, Mohira oyim va Olim ponsodning katta qizi edi. Yozuvchi tomonidan unga singdirilgan uzun bo‘y, qotma va zarcha tanalik kabi tashqi ko‘rinish Xushro‘yning xarakteri: yengil, tez lavzli, ko‘zi o‘ynab turuvchi, har sekundda o‘n yoqqa alanglaydigan sifatlar asar davomida

Xushro‘ybibining Yusufbek hoji oilasida bo‘lgan voqealarga arashuvlarida qo‘l keladi. Xushro‘yga bolalik chog‘idayoq uy ichi va qo‘ni-qo‘shnilari tomonidan “shaddod” ismi berilgan. Chunki u kimdan bo‘lsa-bo‘lsin, aytkanini qildirmay qo‘ymas edi. Agar birorta ish uning tilagiga teskari bo‘lsa, shovqin-suron qilib hammani jonini halak qilardi. Shuning uchun uyda Xushro‘yning nima ovqat yeyishini bilmasdan turib uyda ovqat qilinmas edi. Hayit bayrami munosabati bilan kiyimlik bir oylar ilgari olinsa ham, Xushro‘yga yoqmasa yoqadigani almashtirilar, mehmondorchilikda ham u boraman desa uni tashlab ketishga hech kimda had bo‘lmas, mobodo borish fikriga qarshi bo‘lsa, hammadn oldin fikrini e’lon qilar, uni joyidan bir qadam siljitchishga hech kimda haq qolmas edi. Xushro‘ybibining turmush qurush sahnasi ham o‘zining fe’lidek bir sharoit, bir yo‘sinda sodir bo‘ldi. Eshigiga kelgan sovchilarning yoniga chiqib: “ersirab qolganim yo‘q”, - deya ularga javob berib yuboradi, b ishi bilan ota-onasining yuzini yerga qaratadi. O‘ziga musht ko‘targan akasi Azimbekni ham haq so‘zları bilan fikridan qaytaradi. Xushro‘yning turmushga chiqishi favqulorra bir hodisa bo‘ladi. Turmushga chiqmagan, buning ustiga baobro‘xonardon qizi bo‘lgan Xushro‘ybibi Nusratbekdan kelgan sovchilarga rozilik bildirib, uyi va qo‘ni-qo‘shnisini xayron qoldiradi. Chunki Nusratbek oilali, uni ikkinchi xotinlikka olyotgan edi. Xushro‘ybeka to‘ydan so‘ng Nusratbekni birinchi xotinini ikkita bolasi bilan quvlaydi. Nusratbek farzand ko‘rmayotganini hazil aralash Xushro‘ybekaning yuziga solganda “bolasiz kishi dunyoda turolmaydigan bo‘lsa, bir oz zahar bilan avval sizni, keyin o‘zimni o‘ldiraman”, - deya po‘pisa qiladi. Xushro‘ybeka Julqunboy tomondan salbiy obraz sifatida tasvirlanadi. Uning qilmishlari gullab turgan Nusratbek oilasini yo‘q qilibgina qolmay, singlisi bo‘lmish Zaynabni ham siqilishga, buning natijasida Kumushni zaharab o‘ldirilishiga sababchi bo‘ladi. Xushro‘ybibi muallif tomonidan tanlangan konrast obrazdir. Huddi Jannat xoladek ismi jismiga mos tushmaydi. Ismining ma’nosи “go‘zal, chiroyli” bo‘lgan Xushro‘yda tashqi tarafdan ham, ichki tarafdan ham go‘zallik alomatlari sezilmaydi. Faqat o‘zini o‘yaydigan bunday kimsalar uchun birovning g‘amini yeyish kabi odamiylik tuyg‘ulari begona. Ismigina Xushro‘y bo‘lgan badiiy qahramon asarda ikkinchi darajali obraz bo‘lsa-da asarda burilish nuqtasi yasalishiga turtki bo‘ladi.

Mohlar oyim va Olim ponsodning kenja farzandi O‘zbek oyimning orzusiga ko‘ra uylangan Otabekning ikkinchi rafiqasi, asar fojeaviy tugashiga sababchi bo‘lgan obraz aynabdir. Zaynab muallif tomonidan qisqa bo‘y, oq tan va go‘shtdor sifatlari bilan tasvirlanadi. Faqat tashqi ko‘rinishda emas, ichki xarakter jihatidan ham bir qorindan talashib tushgan Xushro‘ybibidan farq qilar edi. Zaynab loppos, o‘nta so‘zga zo‘rg‘a bitta so‘z bilan javob beradigan, ichidagi o‘y-fikrni so‘nggi daqiqalardagina aytadigan “ichimdagini top” kishilar xilidan edi. Shuning uchun uy ichi va yor-u do‘stlari tomonidan “pismiq” ismi berilgan, bu ismga mosligini Mohlar oyim hayit bayramiga bir oy avval farzandlariga Olim ponsodga aytib oldirgan, bayramga qadar tiktirilgan

kiyimlar Zaynabga yoqmaganligini arafa kuni onasiga ko‘z yoshlari aralash bayon qilinar, bunda ham kech bo‘lgan bo‘lar edi. Zaynab ulg‘ayganda ham bu odati uni tark etmaganligini Kumushbibi ota-onasi bilan Toshkentga kelish arafasidagina o‘zini namoyon etadi. O‘z jufti haloli bo‘lgan Otabekning unga befarqligiga unchalik ham e’tibor bermaydi. Bu e’tiborsizlik Otabekka qo‘l kelib, unga befarqligicha qola beradi. Zaynabning ko‘ngli borligi, ne umidar bilan bir yostiqqa bosh qo‘yanligini faqat kundoshi bo‘lgan Kumushbibi ota-onasi bilan Toshkentga kelishidan bir necha kun oldingina ko‘z yoshlari bilan Otabekka ma’lum qiladi. Ammo bu vaqtida kech bo‘lgan edi. Kumushni aynan Zaynab tarafidan zaharab o‘ldirilishi o‘quvchi nigohida Zaynab salbiy obraz sifatida muhrlanib qoladi. Zaynab salbiy obraz sifatida tasvirlansa-da, Zaynabning Otabekka bo‘lgan chin muhabbat ortidan Kumushbibi hayotiga zomin bo‘lganining guvohi bo‘lamiz. Zaynabdagi tabiat tomonidan tuhfa etilgan xarakter sevgisini o‘z oshig‘iga vaqtida izhori dil qilishga yo‘l qo‘ymaydi. Ag‘yor Kumushbibi Toshkentga kelmaguniga qadar Otabkening Toshkentda yurishi, uning sog‘ligi va borligi bilan kifoyalanib yurgan, sidqi-dilda qaynota va qaynonasiga xizmat qilib yurgan bibi Zaynab, raqibasi kelgachgina yorini qizg‘anish holatiga tushdi. Zaynabbibi ham muhabbat borasida Kumushdan kam sevmadi, uning birgina aybi Kumush erishgan baxtga, ya’ni sevikli yor bo‘lish baxtiga erishmadi. Bir osmonga ikki oftob sig‘maganidek, bir ko‘ngilga ikki yor ham sig‘mas. Mirzakarim qutidor va uning oila a’zolari kelish sahnasiga diqqat qiladigan bo‘lsak, tabiatan chala-dumbul deya ta’riflangan O‘zbek oyim qo‘ni-qo‘shni va Zaynab hamda uning onasi Mohira oyim, opasi Xushro‘ybibi, yangasi Hanifanisolar yonida Marg‘ilonlik qudasi Mirzakarim qutidorning mol-dunyosi, fahm-farosati to‘g‘risida so‘zlar, qutidorning o‘g‘lim bo‘lsa shundog‘ bo‘lar edi-da, mendan keyin hamma davlatim shuniki, ilohi omon bo‘lsin deb yurganlari haqida mehmondorchilikka yig‘ilganlarga aytib maqtab o‘tiradi. Bu albatta Zaynab tarafning g‘ashini keltiradi: Mohira oyim allanuchkalangani holatda javob berar edi: - Ha, aylanay quda, qars ikki qo‘ldan chiqadir, deganlar... Buzoq yaxshi bo‘lsa, ikki onani ham emar ekan... Mohira oyim qudasini sal bo‘lsa-da hovuridan tushurish, buning ustiga Zaynabni ham yerga urdirib qo‘ymaslikka harakat qilib aytdadi. Gapda qo‘llangan “Ha, aylanay quda,” iborasi aynan ma’nosiga ko‘ra tasdiq ma’nosini bildirsada, ammo uzviy ma’nosи yalinish, iltimos ohanglarini ham beradi. Yusufbek hoji xonadonisda cho‘rilik qiladigan Oybodoq mehmonlarning kelgani xabarini berishi bilan O‘zbek oyim gapirayotgan gapini ham chala qoldirib ularning iqboliga shoshishi yana bir bor Zaynabning nafsoniyatiga tegmay qolmaydi. Zaynabning kundoshini kutib olish o‘rniga bo‘zarg‘an holatda uyiga kirib ketishiga sabab bo‘ladi. Zaynab barcha qizlar qatori kelinlikni turmush o‘rtog‘i, ne umidlar bilan bir yostiqqa bosh qo‘yanidan topishni orzu qiladi. Bu orzusi unchaik ham amalga oshmagan bo‘lsa-da, eri tarafidan qattig‘ so‘z eshitmaganligidan, qaynota va qaynonasining xushfe‘l va tarbiyaliliqi uning chin ko‘ngildan bu uygaga mehr berishiga sabab bo‘ladi. Millatimizda qaynonani o‘z

onasidek ko‘rish holatlari uchrab tursa-da, ammo doim kelinlar o‘z qaynotalarini o‘zining tug‘ishgan otalaridek mehr berishlari odatiy holga aylanib qolgan. Zaynabda ham mana shu holatni Qodiriy oddiy so‘zlar orqali juda nozik holda ifodalaydi: “Qayin ona, kelin qarshisig‘a kelib o‘lturishkandan keyin hoji Zaynabka qarab oldi:

- Bolam, Zaynab, - dedi, - biz Marg‘ilondagi opang ko‘chini olib kelmakchi bo‘ldiq... Sen shunga nima deysan?

Zaynab yalt etib qayn onasig‘a qaradi, chunki O‘zbek oyimning boyagi gapi endi unga onglashilg‘an edi. Do‘stni dushman yonida ko‘rib bilinar-bilinmas entikdi.¹

Yusufbek hoji hamda O‘zbek oyimni o‘ziga do‘st bilgan, damba-dam domla-yu mullaga o‘g‘lini duo qildirtirishga kelini Zaynabni undaydigan O‘zbek oyim tezda o‘zgargani Zaynabnisani entiktirgan edi. Dushmani kelar payti shuning uchun bo‘zrayib o‘z xonasiga kirib ketishga majbur bo‘lgan edi. Doim o‘ziga hamfikr, do‘st deb o‘ylaydigan O‘zbek oyim gapirib turgan gapini-da tashlab Marg‘ilonlik kelinni kutib olishga shoshgani shundoq ham ezilgan yuragini battar ezdi. Zaynabning aybi oa-onasining xohishicha o‘zi sevmagan bilmagan xonadonga kelin bo‘lib borishida desak, Zaynabda ham ichi qoralik hislati ko‘rinadi. Kundoshi kelar mahal Yusufbek hoji tomonidan Zaynabga berilgan “egachi – singil bo‘lib ketish munosabati”iga u “bo‘lib ketarmiz” javobi bilan yana qayta so‘ralganda esa “bilmadim, qars ikki qo‘ldan chiqadir, men yaxshi bo‘lg‘anim bilan opam yomon bo‘lsa, hozirgi bergen va’damdan nima foyda bo‘lsin” , - deya aytgan gaplaridan ham bilishimiz mumkinki, agar Kumush yaxshi bo‘lsa men ham yaxshi, u yomon bo‘lsa men ham yomon manisidagi gapni aytadi. “Kundoshlik uyda kunda janjal” deganlaridek Marg‘ilondan Toshketnga kelgan Kumushda ham qizg‘anchiqlik holati bir necha bor kuzatiladi. Zaynabni ham o‘ylamay, u ham ne orzu-umidlarda bir yostiqqa bosh qo‘ygan demay hattoki Otabekdan Zaynabnisani taloq qildirish haqida so‘z ham olishi Kumushning ham doimiy ijobjiy qahramon degan fikrdan, uning ham farishta emas balki, odam bolasi ekanligidan dalolat beradi. Zaynab Kumush kelgan halovatini yo‘qotadi. Uch-to‘rt oy ichida dam o‘tmasdan uyda chiqqan janjallar natijasida ota uyiga, qarindosh-urug‘larinikiga ketib qolishga majbur bo‘ladi? Chunki Kumush o‘z aql va fahm-farosati, ochiq fe’lliligi-yu go‘zal hulqi, buning ustiga eri tomonidan sevilisi barcha oila a‘zolarining Kumushning tarafini olishiga sababchi bo‘ladi. Birgina Yusufbek hojigina oiladagi bunday holatniadolat tarozisida o‘lchab, ikkala keliniga ham xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘ladi. Zaynab ikki yillab yonida bo‘lgan muhabbatni egasidan ko‘rmagan iltifotni Kumush Toshkentga kelganiga hali bir oy ham to‘lmadsanoq sazavor bo‘ladi. O‘zbek oyimning shu ikki yil ichida Zaynabga xo‘jako‘rsingagina yalpog‘lanishi ham o‘z nihoyasiga yetib, ba’zida Zaynabga nisbatanadolatsizlik qilganini ham muallif tomonidan Yusufbek tilidan aytib o‘tib ketadi. Hayotdan zerikkan, sevilmagan bechor Zaynab so‘nggi urush-janjaldan so‘ng opasi shaddod Xushro‘ybibining uyiga borganda

¹ Abdulla Qodiriy.Tanlangan asarlar. T.:“Sharq” nashriyoti. Toshkent-2018. B243.

opalargagina xos bo‘lgan jonkuyarlik holat ro‘y beradi. Singlisining bu holga tushishiga faqat va faqat singlisini ayblab, undagi muammoni ochiq aytadi. Xushro‘ybibi hech qachon Zaynabga “oilangdagilarni zaharla” deb aytmaydi. Singlisiga joni achiganidan, ko‘z yoshlarining daryo bo‘lganidan kuyinib “Sening o‘rningda bo‘lganimda bilasanmi nima qilar edim, Zaynab, dunyosini ost-ust qilar edim, bir tomchi yoshimni yuz tomchi zahar bilan qo‘shib tashlar edim”, - deya gapiradi. Xushro‘ybibi o‘zicha o‘ylagan to‘g‘ri yo‘lni Zaynabga ko‘rsatadi, ya’ni erdan chiqishni maslahat beradi. Ammo Zaynabning chin oshiq bo‘lganidan bexabar opa agar Kumushning tinchini buzaversang seni taloq qiladi deya uning yuragiga yana yog‘ sepati. Zaynab chin oshiq ersa-da, yorini o‘zgasi bilan baxtli ko‘rishga chidolmaydi. U shunchalar Kumush o‘rnida bo‘lishni xohlaganidan o‘zining ismini-da unutadi. Otabek tomonidan Kumushga tuhfa etilgan muhabbatga erishmoq istagi Zaynabni faqatgina Kumushning o‘limi bilangina amalgalashiga ishontiradi. Kumushni zaharlagandan so‘nggina bu qarori xato ekanligini tushunib yetdi. U faqatgina Kumushni zaharlamadi, balki o‘zining keyingi hayotini ham zaharladi. Kumush vafotidan keyin uning aqldan ozishi qilgan ishiga pushaymonligidan bo‘lsa ajab emas. Kumush vafotidan bir yil o‘tkach Otabek do‘sti usta Alim bilan Marg‘ilondan Toshkentga keladi. Toshkentda ekanligida marhuma Kumushning qabri ziyoratiga borganda Zaynab ham Otabekni ko‘rgani boradi. E’tibor berishimiz kerak bo‘lgan yana bir sahna borki, nega aynan Zaynab Otabekni qabristonda ko‘radi. Axir Marg‘ilondan qaytgan Otabekni ko‘cha-kuyda yoki qabristondan boshqa joyda uchratishi ham mumkin ediku. Zaynab o‘z qurboni Kumushni zaharlagandan afsusda, mozoristonni kezib yurishi, sevikligi bir kunmas bir kun albatta ziyoratga kelishini bilgani holda oshig‘ini kutadi. Asarda majnuna deya ta‘rif berilgan Zaynab suyuklisinda taniydi, unga yaqinlashmoqqa, Kumushga bo‘lgan Otabek mehrini o‘zida his qilmoqqa intiladi. “Otabek holsizlanib oyog‘ uzra turdi va orqasidag‘i yarim yalang‘och ko‘lagani ko‘rib bir necha qadam qabr tomong‘a tislandi... Ko‘laga yaling‘ansumol unga yaqin yurib keldi...

-Kim bu?

-Men Kumush!...

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

-Ket mundan!

-Men Kumush! – dedi yana Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zero ki dunyodagi eng yaqin kishisi unga “ket!” amrini bergan edi. Zaynab orqasig‘a qaray-qaray Otabekdan uzoqlashdi. Otabek qaytib unga qaramadi, qabr yonig‘a tiz cho‘kdi...² Julqunboy tomonidan qo‘llangan ushbu tasvir har qanday yuragi urib turgan kishini rahmini keltirishi turgan gap. Zero, muhabbati yo‘li-da o‘z ismidan-da kechish, aqldan ozgan bo‘lsa-da sevgilisi Otabekni tanish hamda begi uchun u sevgan Kumush bo‘lishga-da tayyorligi albatta , chin oshiq bo‘lmog‘i lozim.

² Abdulla Qodiriy.Tanlangan asarlar. T.:“Sharq” nashriyoti. Toshkent-2018. B301.

Abdulla Qodiriy birinchi o‘zbek romanida Xushro‘ybibi bilan Zaynabning fe’l-atvori orqali konflikt yaratgan bo‘lsa, kundoshlik qismati bilan qarshilantirishni yuqori darajaga olib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qodiriy.O‘tkan kunlar.-T.: Yangi asr avlod, 2011
2. Jabborov N. O‘tkan kunlarda milliy ruhiyat talqini.-T.: Sharq, 2019
3. Jo‘raquloov U. Qodiriy va roman tafakkuri.- T.: Nurafshon business, 2020
4. Karimov B. Qodiriy germinatevtikasi. –T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017
5. Mirzayev T. Va boshqalar. O‘zbek xalq maqollar.- T.: Sharq, 2005
6. Qosimov B. Quyosh borligiday oydin haqiqat /Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
7. Qo‘shjonov M. O‘zbekning o‘zligi/Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2018.
8. Suyunova Z. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida milliy ruhiyat talqini/ magistrlik dissertatsiyasi. – T.: Toshkent. 2022.